



O'ZBEK TILIDA LEKSIK-SEMANTIK MUNOSABATLAR

Xavasxon Shokirova Nurmamatovna

Namangan Davlat Pedagogika instituti Filologiya kafedrasи v.b.professori

E-mail: shokirova01.72@gmail.com

Muhammadjonova Muxlisa Akmaljon qizi

Namangan Davlat Pedagogika instituti O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Muhammadjonovamuxlisa812@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada leksik birliklar o'rtaсидаги ма'но муносабатлари кенг қамровда таҳлил qилинади. Xусусан, лексемалар орасида узага келадиган семантик bog'liqliklar, ularning xilma-xilligi hamda har bir turining til tizimidagi o'rni va funksional yuklamasi yoritiladi. Tadqiqot doirasида лексемалар о'rtaсида узага келадиган семантик aloqalar, ularning turlari, har bir turining til tizimidagi o'rni hamda funksional yuklamasi lingvistik nuqtayi nazardan o'rGANILADI. Sinonimiya, antonimiya, omonimiya kabi semantik hodisalar mazmuniy xususiyatlari asosida taҳlil qilinib, ular orqali shakllanadigan semantik maydonlarning xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, ushbu ma'no муносабатларининг lug'aviy boylikni kengaytirish, nutqning mazmuniy aniqligini ta'minlashdagi roli ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so'zlar: sema, atash semasi, ifoda semasi, vazifa semasi, leksema, semema, sinonimiya, antonimiya, graduonomiya, giponim, meronim, ekvonim, partonim.

Аннотация: В статье дается комплексный анализ семантических связей между лексическими единицами. В частности, освещаются семантические связи, возникающие между лексемами, их многообразие, а также роль и функциональная нагрузка каждого типа в системе языка. В исследовании рассматриваются семантические связи между лексемами, их



типы, роль каждого типа в системе языка и их функциональное значение с лингвистической точки зрения. Такие семантические явления, как синонимия, антонимия и омонимия, анализируются с точки зрения их содержательной характеристики, а также выявляются особенности образуемых с их помощью семантических полей. Научно изучается также роль этих семантических отношений в расширении словарного запаса и обеспечении смысловой ясности речи.

Ключевые слова: сема, термин сема, выражение сема, функция сема, лексема, семема, синонимия, антонимия, градуономия, гипоним, мероним, эконим, партоним.

Annotation: this article provides a comprehensive analysis of the semantic relationships between lexical units. In particular, it covers the semantic connections that arise between lexemes, their diversity, and the role and functional load of each type in the language system. The study examines the semantic relations between lexemes, their types, the role of each type in the language system, and the functional load from a linguistic point of view. Semantic phenomena such as synonymy, antonymy, and homonymy are analyzed based on their semantic properties, and the characteristics of the semantic fields formed through them are revealed. The role of these semantic relations in expanding vocabulary and ensuring the semantic clarity of speech is also scientifically elucidated.

Keywords: sema, term sema, expression sema, function sema, lexeme, sememe, synonymy, antonymy, graduonome, hyponym, meronym, eqonym, partonym.

Kirish

Til jamiyat mahsuli sifatida shakillangan murakkab, ijtimoiy biologik, psixik hodisa ekan, insonning olamni anglashi, dunyoni bilish sezgilarini jamlangan a'zolarning nutq apparati sifatida takomillashuvi muayyan tarixiy davr hamda tizim



talablari asosida amalga oshgan. Ya’ni, til kishilik jamiyatida eng muhim ahamiyat kasb etuvchi omillardan biri hisoblanadi. Tilda so’zlar ma’no anglatadi, biror-bir ob’ekt yoki narsa hodisani ifodalaydi va ularga belgi va ishora beradi.

Tilda leksemalar orasida turli xil munosabatlar amal qiladi. Ba’zi munosabatlar ma’no asosida mavjud bo‘lsa, boshqalari orasida shakliy munosabatlar mavjud bo‘ladi. Shu boisdan leksemalararo munosabatlarni ikkiga ajraladi

- 1) leksik-semantik munosabatlar.
- 2) leksik-shakliy munosabatlar.

Leksik-semantik munosabat deganda leksemalarning o‘zaro ma’no asosidagi o‘xshashlik va farqlari tushunilsa, leksik-shakliy munosabat sifatida leksemalarning o‘zaro shakl asosidagi o‘xshashlik va farqlari e’tiborga olinadi.¹

Ma’lum bo‘ldiki, leksik birliklar lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarining muayyan bir guruhida vazifaviy-mazmuniy mikroguruuhlarni tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar zid (antonimlar, konversivlar) va zid bo‘lmagan ma’nolarga ega bo‘lar ekan. A’zolari zid bo‘lmagan ma’nolarda tutashuvchi lug‘aviy-mazmuniy qurilmalarning bir tag guruhini denotativ asosda farq qilmovchi sinonim va dublet xarakteridagi hodisalar va ularning tizimi tashkil qilishi ham yuqoridagi ma’lumotlardan bizga aniq bo‘ldi. Lug‘aviy, mazmuniy medioqurilmalarining boshqa bir tagguruuhida ularni tashkil etuvchi muqobil leksik birliklarning denotativ asosi har xil bo‘ladi. Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar uch guruhga ajraladi:

- a) shakldosh so’zlar guruhi
- b) ohangdosh so’zlar guruhi
- c) ma’nodosh so’zlar guruhi

Lug‘aviy omonimiya til leksikasida shakldoshlikning o‘ziga xos va mustaqil ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois, lug‘aviy sathda shakldoshlik

¹ file:///C:/Users/user/Downloads/133-136%20(3).pdf



munosabatiga kirishuvchi hamda ushbu munosabatni yuzaga keltiruvchi leksik birliklar — ya’ni so‘z va leksemalar — lug‘aviy (leksik) omonimlar deb ataladi.

So‘zlar shak va ma’no munosabatlariga ko’ra bir necha turlarga guruhlanadi. Shakli bir xil, ma’nosи har xil so‘zlar — omonimlar (shakldosh so‘zlar) deb ataladi. Omonim grekcha so‘z bo’lib, bir xil nom degan ma’noni bildiradi Omonimlar bilan ko‘p ma’noli so‘zлами o‘zaro farqlashda quyidagi xususiyatga e’tibor qaratish lozim: ko‘p ma’nolilikda bir so‘z bir necha ma’nolarni bildiradi va bu ma’nolar bosh ma’noga qaysidir jihatdan bog’liq bo’ladi. Omonim so‘zlarda esa ma’nolar o’rtasida hech qanday aloqa bo’lmaydi, ularning har qaysisi alohida-alohida so‘zlardir.

Birdan ortiq nominativ ma’nolarni ifodalash uchun xizmat qiladigan bir xil shakldagi so‘zlarni omoleksemalar deyiladi. Masalan, “ko‘k”omoleksemasi tovush tarkibi, talaffuzi va yozilishi ayni bir xil uch lug‘aviy birlikni bildiradi:

- 1 – ko‘k: “osmon” ma’nosida;
- 2 – ko‘k: “rang” ma’nosida;
- 3 – ko‘k: “zelen”, “ko‘kat” ma’nosida.

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning ikkinchi guruhi bu ohangdosh so‘zlar guruhi hisoblanadi. Ohangdosh so‘zlar asosida shakllanuvchi lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar til tizimida muhim semantik hodisa sifatida e’tirof etiladi. Ushbu qurilmalar, ya’ni shakl va talaffuz jihatidan o‘xhash, biroq ma’no jihatidan farqlanuvchi birliklar ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

- 1) omofonlar
- 2) paronimlar

Ohangdosh so‘zlarning bir turi omofonlar debataladi. Omofonlar tovush tarkibi, yozilishi har xil lug‘aviy birliklardan tashkil topadi. Yozma shakli va tovush tuzilishi jihatidan farq bo‘lsa-da, ularning talaffuzi bir xil bo’ladi. Yod – yot, sud – sut,mard – mart, bob – bop tipidagi juftliklarni tashkil etuvchi lug‘aviy birliklar hisoblanadi.



Paronimlar tovush tuzilishida, tovushlarining joylashish tartibida qisman o‘xshashlikka ega bo‘lgan har xil lug‘aviy birliklardir. Paronimlar talaffuzda qisman farq qiladi. Ularga teri – tire, shtab – shitob, sog‘lik – sovliq, tanbur – tambur, rux – ruh, sanoat – san’at, urush – urish, qurchoq – quchoq, oxir – axir – oxur tipidagi qatorlarni hosil qiluvchi lug‘aviy birliklar kiradi.

Paronimlar tarixiy-etimologik jihatdan turli xil bo‘ladi:

- 1) o‘zbekcha va o‘zbekcha so‘zlar paronimiyasi: yonilg‘i – yoqilg‘i, egarlamoq – egallamoq, burish – burush, qo‘y – quy, uy – o‘y, urish – urush, tuzum – to‘zim, ellik – enli;
- 2) o‘zbekcha so‘z va o‘zlashgan so‘z paronimiyasi: dala – dalla, moy – may, soliq – solih;
- 3) o‘zlashgan so‘z va o‘zlashgan so‘z paronimiyasi: surat – sur’at, tafsil – tafsir, ta’rif – taraf, tip – tif, ferma – firma;

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning uchinchi guruhi ma’nodosh so‘zlar guruhi hisoblanadi. Bu guruh dastlab lug‘aviy birliklar kabi ikki guruhga ajraladi.

- 1) Zid ma’noli
- 2) Zid bo’lmagan ma’noli

Antonimlar ma’nolari o‘zaro zid lug‘aviy birliklardir. Nominativ (lug‘aviy) ma’nolari o‘zaro zid leksemalardan tashkil topgan lug‘aviy mazmuniy medioqurilmalar ham til lug‘at tarkibida faol uchrovchi guruhlardan biri hisoblanadi. Antonim lug‘aviy birliklar munosabatidan tarkib topgan paradigmalarda fonetik qurilishi, yozilishi, talaffuzi har xil, bir-biriga hech ham o‘xshamagan lisoniy birliklar ishtirot etadi: katta – kichik, issiq – sovuq, keng – tor, achchiq – shirin, qattiq – yumshoq; turdi – yotdi, ketdi – keldi, chiqdi – tushdi.

Leksik birliklar o‘rtasidagi zidlik munosabati tilshunoslikda antonimiya deb ataladi. Bu semantik munosabat, odatda, ikki lug‘aviy birlik orasida yuzaga keladi va ularning har biri ikkinchisiga nisbatan antonim hisoblanadi. Ushbu birliklar juft holda antonimiya paradigmasini tashkil etadi, ya’ni ular ma’no qarama-qarshiligi



asosida bir qatorga birlashadi. Masalan, baland-past, katta-kichik, chiroyli-xunuk, ozg'in-semiz kabi so'z juftliklari ma'no jihatidan bir-biriga zid bo'lib, o'zaro antonimlik munosabatini namoyon etadi. Ana shunday zid ma'noli juftliklar asosida shakllangan qatorlar antonimiya paradigmalari sifatida qaraladi. Ular tilda semantik tizimning mukammalligini ta'minlash, fikrni aniq va ravshan ifodalash, qarama-qarshi tushunchalarni taqqoslash imkonini beruvchi vosita sifatida xizmat qiladi. Shu jihatdan, antonimiya hodisasi tilning leksik boyligi va funksional imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim omillardan biridir.

Belgi-xususiyat ma'nosiga ega so'zlarda bu xususiyat ancha faoldir.

Shu bois antonimlik sifat va ravish turkumiga xos lug'aviy birliklar munosabatida ko'proq uchraydi. Bu hol sifat va ravishlardan boshqa turkum so'zleri antonimiya munosabatidan uzoq degan xulosaga olib bormaydi. Antonimlik va antonimiya munosabati ot, fe'l, olmosh turkumiga qarashli so'zlar munosabatida ham mavjud. Biroq ular sifat va ravishlardagiga nisbatan nofaolroq.

Ot turkumiga xos antonimlik odatda uning belgi ma'nosini bildiruvchi guruhlarida ko'zga tashlanadi: tinchlik va urush, sevgi va nafrat, dag'allik (to'nglik) va muloyimlik, hayot-o'lim, yorug'lik-zulmat, boylik-qashshoqlik.

Fe'l turkumiga xos antonimlik guruhlar ham mavjud. Masalan, bormoq – qaytmoq, og'irlashmoq – yengillashmoq, tug'ilmoq – o'lmoq, yo'qotmoq – topmoq.

Til tizimida barcha so'z turkumlari o'rtasida antonimiya munosabatining mavjudligi kuzatilavermaydi. Xususan, sonlar, olmoshlar hamda modal so'zlar antonimlik munosabatini yuzaga keltira olmaydigan so'z turkumlari sirasiga kiradi. Bu guruhdagi birliklar semantik jihatdan zidlik asosida qarama-qarshi juftliklar hosil qilmaydi. Biroq ba'zi hollarda zid ma'noga ega deb baholanadigan orqa – old, ost – ust, ich(kari) – tash(qari) kabi birliklar ko'makchi sifatida namoyon bo'lsa-da, ularning kelib chiqishiga ko'ra ot turkumiga mansub lug'aviy birliklar ekanligi



tilshunoslik nazariyasi nuqtayi nazaridan qayd etiladi. Shunday ekan, bunday birliklarning antonimiya munosabatini ifodalashi ularning grammatik emas, balki leksik birlik sifatida baholanishiga bog‘liqdir. Bu holat til strukturasi va semantik tizimdagи murakkab ichki bog‘liqlarlarni yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Antonimlarni lisoniy guruhashda, tasnif etishda ularning bir necha jihatlari hisobga olinadi. Bulardan biri tub yoki yasalmasligiga ko‘ra va bu xususiyat ham o‘z navbatida 2 ga bo‘linadi.

a) tub antonimlar (bunda antonimik juftlikni hosil qilgan muqobil lug‘aviy birliklar tub so‘zlar xarakterida bo‘ladi: keng – tor, kun – tun, botir – qo‘rqaq, azob – rohat;

b) yasama antonimlar (bular o‘zakdosh antonimlar deb ham ataladi, chunki ular bir o‘zak morfemaga zid ma’noli har xil yasovchi affikslar qo‘shish orqali hosil qilinadi): aqli – aqilsiz, ishli – beish//ishsiz, pulsiz – puldur, suvli – suvsiz;

Antonimiyaga yondosh hodisalardan yana biri enantiosemiya deb ataladi. Enantiosemiyada zid ma’noli ayni bir lug‘aviy birlikning semantik qurilishida bir-biriga qarama-qarshi ikki ma’no vujudga keladi. “Bebaho” so‘zining ichki ma’nosida ham o‘zaro qarama-qarshi semalar mavjud: ularning biri “baho” ma’nosi anglatgan belgixususiyatni inkor etsa, ikkinchisi bu undan anglashilgan belgixususiyatning ortiq darajada mavjudligini bildiradi. Masalan, “Boshlig‘imiz beba ho odam-da” gapida ajratib ko‘rsatilgan so‘z enantiosemik xarakter kasb etgan.

Sinonim va sinonimiya lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning shunday ko‘rinishiki, ularda tovush qurilishida tubdan farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq lug‘aviy birliklar (leksemalar) bir umumiy ma’no doirasida birlashadi. Shu bois ham an’anaviy tilshunoslikda sinonimlarga “shakli har xil, ma’nosi bir xil so‘zlar” degan ta’rif beriladi va bu ta’rif umumta’lim maktablari darsliklarida ham hech o‘zgarishsiz uchraydi.



Darhaqiqat, bir sinonimiya paradigmaida (qatorida, uyasida) tutashuvchi lug‘aviy birliklar bir umumiyy denotatsiyaga ega bo‘ladi. Masalan, uy – bino – kulba, ko‘cha – yo‘l, ko‘k – osmon – fazo, bosh – kalla paradigmatic qatorlariga e’tibor bersak, birinchi sinonimik qatorni tashkil qilgan lug‘aviy birliklar “yashash makoni” ma’nosidagi bir umumiyy denotatsiyaga asoslangan. Keyingi sinonimik qatorni hosil qilgan lug‘aviy birliklar esa, “yer yuzini tepadan qoplovchi planeta” ma’nosini va shu ma’noning nolisoniy obyektini (denotatsiyasini) atagan. Ko‘cha va yo‘l, bosh va kalla lug‘aviy birliklari munosabatidan tashkil topgan sinonimiya qatorida ham shularga o‘xshash xususiyat mavjud: sinonimik muqobillar “kishilar va har xil naqliyot vositalari harakat qiladigan obyekt” ma’nosi bilan bir umumiyy denotatsiya atamasi sifatida xizmat qiladi. Bosh va kalla so‘zlarining “inson va hayvon tanasining yuqori qismi” ma’nosini anglatishi va shu ma’noning nolisoniy asosini hamma bir xil tushunadi.

Leksik sinonimiya asoslangan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarda ma’nodosh muqobillarning iste’molida asosan uch jihat nazarda tutiladi:

- 1) ma’no jihat;
- 2) uslubiy bo‘yog‘i;
- 3) nutqda ishlatalishi.

Ma’no tafovutlari asosida ajralib turadigan sinonimik birliklar orasida, ularning mazmuniy tuzilishi va ayrim semalarining mavjudligi hamda faoliyat ko‘rsatish xususiyatiga ko‘ra farqlar kuzatiladi. Bunday turdagи sinonimlar ilmiy adabiyotda ideografik sinonimlar deb yuritiladi. “Ideografik” atamasi yunoncha “idea” — ya’ni tushuncha, tasavvur degan ma’noni bildiradi. Masalan, yanglish va xato, noto‘g‘ri; kerak va lozim.

Sinonimik muqobillar orasida ma’no jilosi va ma’no bo‘yog‘i bilan farqlanuvchi birliklar mavjud bo‘lib, bunday xususiyatga ega sinonimlar uslubiy (stilistik) sinonimlar deb ataladi. Uslubiy sinonimlar ishtirokidagi paradigmatic qatorlarda uslubiy bo‘yog‘i betaraf (neytral) bo‘lgan va bo‘lmagan leksik birliklar



birgalikda qatnashadi. Stilistik bo‘yoqqa ega sinonimlar esa konnotativ ma’nosini jihatidan ijobiy yoki salbiy xarakter kasb etadi. Masalan, yuz, bet, aft, bashara, chehra; osmon, ko’k, samo, fazo, falak, koinot, falak; nur, shu’la, ziyo, yog‘du.

Ma’nodosh muqobillar nutq uslubiga, ya’ni ular tegishli bo‘lgan vazifaviy uslub turiga ko‘ra ham farqlanishi mumkin. Ana shunday uslubiy farqlanish asosida sinonimik qatordagi ayrim leksik birliklar nutqiy sinonimlar sifatida ajratiladi. Nutqiy sinonimlar, odatda, bir ma’noni ifoda etsada, turli uslubiy kontekstlarda qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Masalan, Ko‘hlik ma’nodosh muqobili so‘zlashuv nutqi uchun rasmiylashgan bo‘lsa, go‘zal, zebo, barno singari ma’nodosh muqobillar badiiy nutq uchun xoslanganligi bilan xarakterlidir.

Evfemizmlar sinonimiyaga yaqin vazifaviy-mazmuniy hodisalardir. Evfemizmlar so‘z qo‘llash orqali amalga oshiriladi. So‘z qo‘llash va uning jarayoniga nisbatan leksik qo‘llash atamasi ham ishlatiladi. Eshitilishi noqulay va yoqimsiz so‘zlar o‘rnida qo‘llanuvchi ijobiy bo‘yoqli bunday muqobillar evfemizmlar deb ataladi. Misol qilib keltiradigan bo‘lsak, umri tugagan insonga nisbatan “o‘ldi” deyish tinglovchiga yoqimli eshitilmaydi. Shu so‘z ma’nosini tinglovchiga “muloyim” yetkazish uchun, “u dunyoga ketdi”, “Olloh marhamatiga oldi”, “narigi dunyo safariga jo‘nadi” va h.k. iboralar vositasida yetkaziladi.

Lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalarning ayrim tagguruuhlariga quyidagi birliklar kiradi:

- a) giponimlar;
- b) ekvonimlar;
- d) partonimlar;
- e) graduonimlar;

Giponim, ekvonim, partonim hamda graduonimlardan tarkib topgan lug‘aviy-mazmuniy medioqurilmalar o‘z tabiatiga ko‘ra sinonim va dubletlar, shuningdek, antonim va konversivlardan tashkil topuvchi mazmuniy tuzilmalar bilan funksional va semantik jihatdan muayyan o‘xshashliklarga ega.



Graduonimlar darajalanish deb ham ataladi. Masalan, chiroyli – suluv – ko‘rkam – zebo, qizg‘ish – qizil – qirmizi qatorlarida shu qatorlarni hosil qilgan so‘zlar ma’nosida belgi-xususiyatning “ortiq – mo’tadil – kamligi” darajasi mavjud. Shu xususiyatga ko‘ra mazkur paradigmatic qatorlarda birlashuvchi lug‘aviy birliklar graduonimlar, ularning munosabati esa, graduonimik munosabat deb yuritiladi.

Masalan, chaqaloq – bola – o‘spirin – yigit – chol; mudramoq – mizg‘imoq – uxlamoq – dong qotmoq va b. Shu – bu – u; endi – hozir – boyta; taq-taq – tiqtiq – to‘q-to‘q; eh – uh – ah – vah kabi qatorlar graduonomianing olmosh, ravish, taqlid so‘z va undovlar tizimidagi amaliga misol bo‘ladi.

Graduonimik qatorni ajratishdagi ma’noviy omilning mohiyati shundaki, bir qator leksemalar sememasida ma’lum bir belgining oz-ko‘pligiga, turli xil darajalariga ishora mavjud. Masalan, darcha–eshik –darvoza leksemasining “O‘zbek tili izohli lug‘ati”dagi izohini kuzataylik:

1. Darcha –ilgari vaqtarda deraza vazifasini o‘tagan bir yoki qo‘sh tavaqali, eshik yoki devorga o‘rnatilgan kichkina eshikcha.
2. Eshik –uy, xona, bino yoki hovlining kiraverishida o‘rnatilgan ochibyopib turiladigan moslama.
3. Darvoza –hovli, qo‘rg‘on, qal‘a, zavod va shu kabilarga kiriladigan, ochib-yopiladigan katta eshik, qopqa.²

Giponimlar ma’no jihatdan boshqa lug‘aviy birliklarga tobe so‘zlardir. Ular ma’lum jinsga qarashli turlarning nomlarini bildiradi. Giponimlarni ma’no jihatdan tobelantirgan lug‘aviy birlik giperonim deyiladi. Demak, giperonim jins tushunchasi bilan aloqador, jins tushunchasini bildirgan predmetning nomini ifodalaydi. Shuning uchun giperonimning ma’no doirasi keng bo‘lib, uning ko‘lamiga giponim anglatgan ma’no ham kiradi. Ma’no ko‘لامи keng so‘z bilan ma’nosini unga tobe so‘z o‘rtasidagi munosabatni (lisoniy aloqani) gipero-

² <http://www.econferences.ru/index.php/dis/article/view/6991/3858>



giponimiya munosabati yoki aloqasi deyiladi. Masalan, o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan “mebel” lug‘aviy birligi “uy jihizi anjomlari” umumiyligi ma’nosiga ega. Stol, stul, shkaf, divan, krovat va h.k. lug‘aviy birliklarining har biri “uy jihizi anjomlari”ga tegishli predmet, narsalar ma’nosini anglatadi. Bu so‘zlarning har biri o‘z denotatsiyasiga ega.

Giperonimlar ma’nosini esa, umumiyligi va mavhum xarakteri kasb etadi. Masalan, sigir, buqa, ho‘kiz, buzoq so‘zlari ma’nosini orqali “qoramol”ning jins va yoshga ko‘ra farqlanuvchi muayyan turlari ko‘z oldimizga keladi; “mol” yoki “qoramol” deyilganda esa, sigir, buqa, ho‘kiz, buzoq kabi aniq turlarni umumlashtiruvchi umuman yirik uy hayvoni ma’nosini tasavvur etiladi.

Giperonim va giponim xarakteridagi lug‘aviy birliklar aloqasidan jins va tur munosabati ifodalanadi. Jins ma’nosini giperonim xarakteridagi lug‘aviy birliklar tufayli, tur ma’nosini giponimlar xarakteridagi lug‘aviy birliklar tufayli anglashiladi. Demak, giponimni giperonimsiz, o‘z navbatida, giperonimni giponimsiz tasavvur etish mumkin emas: tur ma’nosini tashuvchi giponim lug‘aviy birliklar bo‘lmass ekan, jins ma’nosini tashuvchi giperonim lug‘aviy birligi ham bo‘lmaydi.

Ekvonimlar til lug‘aviy sathida giponimlar bilan munosabatdosh, ularga o‘xshash ma’noviy-vazifaviy birliklardir. Ekvonim hukmidagi har bir lug‘aviy birlik shu maqomdagi boshqa lug‘aviy birlikdan in’ikos etgan denotatiga ko‘ra farq qiladi. . Echki leksemasining ma’nosini sovliq, taka, uloq so‘zlarining; qoramol leksemasining ma’nosini sigir, ho‘kiz, novvos, buqa, tana, g‘unojin, buzoq so‘zlarining ma’nolari bilan to‘ldiriladi: sovliq, taka, uloq echki leksemasiga; sigir, ho‘kiz, novvos, buqa, tana, g‘unojin, buzoq qoramol leksemasiga qarashli ekvonimlardir. Bundan shu narsa sezildik, ekvonimlar lug‘aviy birliklar ma’no qamrovi iyerarxiyasining so‘nggi bosqich lug‘aviy-mazmuniy birliklaridir. Giponimlar esa bu iyerarxiyaning oraliq bosqichida amal qila oluvchi lug‘aviy-mazmuniy birliklar sanaladi.



Partonimlar ham lug‘aviy mazmuniy medioqurilmalar tizimida o‘ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turuvchi ko‘rinishlardan biridir. Partonimik munosabatlar lug‘aviy birliklarning butun va qism ma’nosini anglatishi zaminida vujudga keladi. Partonimik munosabatlar tufayli obyektiv borliqdagi butun va uning qismlari munosabati in’ikos etiladi va lisoniy jabhaga ko‘chiriladi. Masalan, odam tabiatning jonli tavsifdagi bir butun mavjudoti. Uning bir butunligini shu “mavjudot”ni tashkil qilgan uzviy qismlar munosabati belgilaydi. “Odam” butunligini tashkil qilgan qismlar hammamizga ma’lum. Ularga bosh, tana, qo‘l, oyoq so‘z (leksema)lari atagan qismlar kiradi.

Partonimik munosabatlar doirasidagi lug‘aviy-mazmuniy birliklarda ham iyerarxik (pog‘onali, silsilali) tuzilish qonuniyati kuzatiladi. Bunday iyerarxik tizimda har bir leksik birlik o‘zidan yirikroq yoki kichikroq tushuncha doirasidagi birlik bilan munosabatga kirishadi. Masalan, qo‘l va oyoq leksik birliklari odam so‘ziga nisbatan partonimlar hisoblanadi. Shunga o‘xshash tarzda, tirnoq, panja va barmoq kabi birliklar esa qo‘l va oyoq tushunchalariga nisbatan partonimlik munosabatida turadi. Bu esa partonimik aloqalarning ko‘p pog‘onali semantik tuzilish asosida shakllanishini ko‘rsatadi. Demak, “odam” butunligini tashkil etgan ana shu qismlar nomi (bosh, tana, qo‘l, oyoq) partonimlardir.

Meronim (yunoncha meros — “qism” va onym — “nom”) — lug‘aviy birlik bo‘lib, u butunning bir qismini ifodalaydi. Meronimlar semantik jihatdan butunbolak munosabatida bo‘lgan so‘zlar guruhiga kiradi. Ya’ni, ular ma’noda biror yirikroq tushunchaning qismiga taalluqli bo‘ladi. Masalan, “uy” so‘zi (leksemasi) butunnom (xolonom) sifatida fundament, devor, pol, tom, eshik, deraza kabi qism nomlarini (meronimlarni) o‘z ichiga oladi.

Meronim va holonim

Meronim — qismni bildiruvchi so‘z (masalan, barmoq).

Holonim — butunni bildiruvchi so‘z (masalan, qo‘l).



Bu munosabatda barmoq — qo‘lning meronimi, qo‘l esa barmoqning holonimidir.

Iyerarxik tuzilish

Meronimlar iyerarxik, ya’ni pog‘onali struktura hosil qiladi. Masalan:

Odam — butun (holonim)

Qo‘l — odamning qismi (meronim)

Barmoq — qo‘lning qismi (meronim)

Bu yerda odam — qo‘l — barmoq bir-biriga bog‘langan iyerarxik meronim-holonim munosabatlari mavjud.

Meronimlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

1. Fizik meronimlar — tashqi yoki moddiy qismlar (masalan, esik — xona qismi).
2. Funktsional meronimlar — biror jarayon yoki faoliyatning qismlari (masalan, yozish jarayonidagi harf).
3. Ierarxik meronimlar — tizimli pog‘onalar (masalan, boshqaruv — bo‘lim — xodim).

Demak, partonimik munosabatlar xolonim (butunnom) va meronim (qismnom)lar aloqasidan tashkil topadi. Masalan, daraxt so‘zi atagan tushunchani predmetni olsak, uning bir butunligi ildiz, poya, tana, shox, shabba, butoq, kurtak, barg kabi qismlardan tarkib topganligidadir. Daraxt qismlarini atagan so‘zlar — lug‘aviy birliklar daraxt so‘ziga nisbatan partonimlar hisoblanadi. Daraxt va uning qismlari bir necha partonimik qatorlarni tashkil qiladi: daraxt va ildiz, daraxt va poya, daraxt va tana, daraxt va shox, daraxt va shabba, daraxt va butoq, daraxt va kurtak, daraxt va barg va sh.k. Lug‘aviy birliklararo partonimik munosabatlar bevosita va bilvosita amalga oshadi. Masalan, ildiz va poya, shox va butoq, kurtak va barg lug‘aviy birliklaridan iborat qatorlar partonimik munosabatlarning bevosita turiga kiradi. Ildiz va barg, ildiz va shox, shox va tana singari qatorlarda esa lug‘aviy birliklararo partonimik munosabatlarning bilvosita turi mavjuddir.



Demak, partonimik munosabatlar deganda, lug‘aviy birliklarning butun va bo‘lak ma’nosini ifodalashi va ularning shu asosda bog‘lanishi, lug‘aviy-mazmuniy paradigma hosil qilishi tushuniladi.

Xulosa

O‘zbek tilining leksik-semantik tizimi murakkab va ko‘p qatlamlı tuzilishga ega bo‘lib, u tilning ichki qonuniyatları va tashqi kommunikativ ehtiyojlar asosida shakllangan. So‘zlar o‘rtasidagi ma’no aloqalari — sinonimiya, antonimiya, giponimiya, meronimiya, konversiya, graduonimiya va boshqa munosabat turlari — til birliklarini semantik jihatdan bog‘lab, ularni ma’lum bir mantiqiy va uslubiy tizimga joylashtiradi. Ayniqsa, bu munosabatlar paradigmatic va sintagmatik bog‘liqliklarda o‘zining aniq ko‘rinishini topadi.

Leksik-semantik munosabatlarning har biri tilning lug‘aviy boyligini, uslubiy imkoniyatlarini va ifoda erkinligini belgilovchi muhim omildir. Shuningdek, leksik-semantik munosabatlar faqat semantik darajada emas, balki pragmatik, stilistik va funksional jihatdan ham muhim ahamiyatga ega. Ular nutq uslublarida — badiiy, ilmiy, rasmiy-idora, publitsistik va og‘zaki so‘zlashuv uslublarida — turlicha ifoda topadi va shu orqali tilning ekspressivlik, emotSIONallik va moslashuvchanlik xususiyatlarini belgilaydi.

Amaliy tahlillar asosida aniqlanishicha, badiiy adabiyotlarda sinonimik va stilistik vositalar ko‘proq ishlataladi, bu esa obraz yaratish, emotSIONal ta’sirni kuchaytirish hamda matnning estetik qiymatini oshirishga xizmat qiladi. Rasmiy uslubda esa neytral, aniq va yagona ma’nodagi leksik birliklar ustuvor bo‘ladi. O‘zbek tilidagi leksik-semantik munosabatlar tilning semantik tuzilmasini tartibga soluvchi, uning mantiqiy va kommunikativ imkoniyatlarini belgilovchi, shuningdek, ifoda va ta’sir kuchini oshiruvchi asosiy vositalardan biridir. Bu munosabatlarni tizimli o‘rganish tilshunoslik nazariyasi va amaliyotining turli yo‘nalishlarida muhim ilmiy natijalar beradi va tilning tabiiy taraqqiyotini chuqrarroq anglash imkonini yaratadi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. A.Berdialiyev, I. Ermatov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: «Turon-iqbol», 2021.
2. U. Tursunova boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent, 1975.
3. R. Safarova Leksik-semantik munosabatlarning turlari T;1996
4. B. Mengliyev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Qarshi. 2004
5. Mirtojiyev M. O'zbek tili semesiologiyasi. – T.: Mumtoz so'z , 2010.
6. Zulkumor X. Tilshunoslik nazariyasi. – T.: Nodirabegim, 2020.
7. [file:///C:/Users/user/Downloads/133-136%20\(3\).pdf](file:///C:/Users/user/Downloads/133-136%20(3).pdf)
8. <http://www.econferences.ru/index.php/dis/article/view/6991/3858>
9. Shokirova X. O'zbek tilida kesimlik kategoriysi: shaxs aktanti va uning nutqiy voqelanishi. Filol.fan. nomz. diss. – Toshkent, 2019. – 127 b.
10. Shokirova X. Tilning lingvoresemiotik strukturasi (semantik-sigmatik, sintaktik-pragmatik aspekt asosida). Filol.fan. doktori diss. – Farg'ona, 2022. – 240 b.
11. Shokirova X. Savodxonlik asoslari.– Farg'ona, Classic. 2023.– 174 b.
12. Shokirova X. O'zbek tilining sohada qo'llanishi. – Farg'ona, Poligraf Super servis. 2023. – 268 b.
13. Shokirova X. Mazmuniy sintaksis. – Farg'ona, Classic. 2023. – 206 b.
14. Shokirova Kh. The issue of speech act in pragmatics. Theoretical & Applied Science.2020.06. DOI: 1015863/TAS. SOI:1.1/ TAS.
15. Shokirova X. Kesimlik kategoriysi va shaxs aktanti. – Toshkent, 2012. – 85 b.
16. Shokirova X. Ta'limda innovatsion nesnologiyalar. – Toshkent, 2013. – 25 b.
17. Шокирова X. Семиотик модел концепцияси. – Кўқон давлат педагогика институти Илмий хабарлари. 2024, 4-сон. – 1840 б.
18. Khavaskhon Shokirova. The Semiotic System and Structure of Language.Emergent: Journal of Educational Discoveries and Learning (EJEDL)Vol:4, No 1, 2025, Page: 1-5.